SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 4
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

KUNGAY QABRISTONI – FARG‘ONA VODIYSINING ILK TEMIR DAVRI YODGORLIGI (N.G. GORBUNOVA TADQIQOTLARI ASOSIDA)

L.Xasanov

Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya
Maqolada Janubi-sharqiy Farg‘onadagi Kungay qabristoni N.G. Gorbunovaning 1961-yilda e’lon qilingan qazishma materiallari asosida tahlil qilinadi. Yodgorlikning joylashuvi, qabr inshootlari, dafn marosimi, sopol va boshqa topilmalari, sanalanishi hamda Oqtom qabristoni bilan munosabati ko‘rib chiqiladi. Qazishma muallifi qabristonni miloddan avvalgi V–IV (III) asrlarga oid, chorvachilik muhim o‘rin tutgan o‘troq dehqon aholining urug‘ qabristoni deb talqin qilgan; bu talqin keyingi tadqiqotlardagi qarashlar bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar
Farg‘ona vodiysi, Kungay qabristoni, Oqtom qabristoni, ilk temir davri, qo‘rg‘on, tosh qabr inshooti, naqshli sopol, Eylaton madaniyati.

1954-yilda Oqtom qabristonida o‘tkazilgan qazishmalar Farg‘ona vodiysi va umuman O‘rta Osiyo uchun ilgari ma’lum bo‘lmagan yodgorlik turini ochdi [4, b. 78; 5, b. 171]. Eylaton–Oqtom madaniyati qisman o‘rganilgan manzilgohlar orqali avvaldan ma’lum edi [9, b. 141], biroq qabriston materiali uni to‘liqroq tavsiflash imkonini berdi. 1954–1955 yillarda yana to‘rtta shunday qabriston topib o‘rganildi; ulardan biri – Kungay qabristoni 1958–1959 yillarda to‘liq qazildi [5, b. 171].

Kungay qabristoni Farg‘ona shahridan 40 km janubi-sharqda, Nayman qishlog‘idan 500 m janubi-sharqda, Quvasoy vodiysini o‘rab turgan shimoliy adirlar yonbag‘ridagi maydonchada joylashgan. U yirik qayroq toshlardan uyulgan 21 ta qo‘rg‘ondan iborat: to‘rttasi «uzun» (uyumi 30 m gacha), 17 tasi «kichik» (diametri 12 m gacha). G‘arbiy qismda qo‘rg‘onlar shimoldan janubga zanjir bo‘lib tizilgan, shimoli-sharqiy va janubi-

sharqiy qismlarda muayyan tartibsiz joylashgan. 1956 yilgi sinov qazishmalaridan so‘ng ishlar 1958–1959 yillarda davom ettirilgan; butunlay buzilgan 6-, 11- va 13-qo‘rg‘onlardan tashqari qabriston to‘liq o‘rganilgan [5, b. 171].

Kungayning Oqtomdan asosiy farqi qabr inshootlaridadir. 53 ta dafndan 41 tasi qadimgi yer sathida, oval yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi tosh terma ichida joylashgan. Termaning pastki qatori uzunligi 30–70 sm bo‘lgan yirik cho‘ziq toshlardan, keyingi qatorlari maydaroq yassi toshlardan terilgan; devorlarning umumiy balandligi 40–70 sm. Inshootlarning usti qanday yopilgani oxirigacha aniqlanmagan [5, b. 187]. Vaqt o‘tishi bilan ular qulab, «uzun» qo‘rg‘onlar uyumini hosil qilgan: 7-qo‘rg‘on bir-biriga qo‘shilib ketgan to‘qqizta tosh uyumidan iborat bo‘lib, unda 10 ta qabr ochilgan. Shu bilan birga ayrim qo‘rg‘onlarda yerga qazilgan go‘r chuqurlari ham uchraydi [5, b. 188].

Barcha marhumlar chalqancha, uzala holda, boshi g‘arbga qaratib qo‘yilgan. Tosh termalardagi dafnlar deyarli doim yakka; juft dafn faqat 7- va 12-qo‘rg‘onlardagi ikkita qabrda qayd etilgan [5, b. 188–189]. Ochilgan qabrlarda jami 51 kishining qoldiqlari topilgan; dafn saqlanmagan termalar va ochilmagan uchta kichik qo‘rg‘on hisobga olinsa, qabristonga taxminan 70 kishi ko‘milgan. Suyaklar juda yomon saqlangani sababli jins va yosh faqat 11 ta skelet bo‘yicha aniqlangan (prof. V.V. Ginzburg). Birorta ham bolalar qabri topilmagan [5, b. 189].

Asosiy topilma – sopol idishlar. Ular marhumning o‘ng tomoniga qo‘yilgan; ayrimlarida qo‘y suyaklari bo‘lgan. Idishlarning 69 tasi qo‘lda, 85 tasi charxda yasalgan. Qo‘lda yasalganlari – yarim sharsimon kosa va cheti ichkariga qayrilgan tovoqlar; aftidan, ular mato qolipda yasalgan. 19 ta idish qo‘ng‘ir-qizil yoki to‘q qizil bo‘yoq bilan naqshlangan, asosiy naqsh – qiya chiziqlar yoki qiya katak bilan to‘ldirilgan uchburchaklar. Ikki idishda butun sirt tik yo‘llar bilan bo‘lingan; bu kompozitsiya bronza davrining Chust–Dalvarzin tipidagi idishlari naqshini takrorlaydi va, muallif fikricha, ikki tip sopolning genetik vorisligini ko‘rsatadi. Charxda yasalgan idishlar tagi tekis xurmacha va tovoqlardan iborat [5, b. 190].

Oqtom va Kungay qabristonlari sopolining tarkibi [5, b. 191]

Qabriston	Qo‘lda yasalgan, naqshsiz	Qo‘lda yasalgan, naqshli	Charxda yasalgan	Jami
Oqtom	54% (315)	7% (42)	37% (217)	574
Kungay	32% (50)	12% (19)	55% (85)	154

Charxda yasalgan idishlar go‘r chuqurlarida tosh inshootlardagiga qaraganda ko‘proq uchraydi: 35 ta yer usti inshootidan 51 ta, 7 ta go‘r chuquridan 34 ta shunday idish topilgan [5, b. 191]. Boshqa topilmalar kam: ikkita bronza paykon, 8 ta tor temir pichoq, osish uchun teshikli 4 ta qayroqtosh, tosh gurzi boshi, beshta surmatosh va grafit bo‘laklari, 2 ta sopol urchuqbosh, 2 ta temir to‘g‘nog‘ich, uchlari tutashmagan 7 ta temir bilakuzuk, kumush simdan yasalgan sirg‘a, uch teshikli suyak to‘qa va suyak kamar uchligi [5, b. 190–191].

23-qo‘rg‘ondan topilgan ikkita uch parrakli bandli bronza paykon sanani belgilashda muhim [5, b. 187]. Xuddi shunday paykonlar Pomirdagi Tamdi qabristonining 10-qo‘rg‘onidan chiqqan bo‘lib, A.N. Bernshtam uni miloddan avvalgi V–IV asrlar bilan sanalagan [2, b. 319; 5, b. 191]. B.N. Grakovga ko‘ra, bandli bronza paykonlar miloddan avvalgi VI–IV asrlarda vtulkali uch qirrali paykonlar bilan bir vaqtda qo‘llangan [5, b. 191; 6, b. 83]; V.M. Masson uch parrakli paykonlarning uzoq vaqt qo‘llanganini qayd etgan [5, b. 192; 10, b. 57]. Oqtom qabristoni temir taqinchoqlarning ko‘pligi va bronza taqinchoqlarning deyarli yo‘qligi asosida miloddan avvalgi V–III asrlar bilan sanalangan. N.G. Gorbunova Kungay uchun ham shu sanani saqlab, yuqori chegarani III emas, IV asr deb hisoblash mumkinligini qayd etgan [5, b. 191–192].

N.G.Gorbunova Oqtom va Kungayni bir madaniyatga mansub deb hisoblab, ular orasidagi farqlarni Janubi-sharqiy Farg‘onada yashagan qardosh aholining turli guruhlariga tegishlilik bilan izohlaydi [5, b. 191–192]. Uning fikricha, «uzun» qo‘rg‘onlar ostiga bir katta patriarxal oila a’zolari ko‘milgan; shimoldan janubga cho‘zilgan qo‘rg‘on zanjirlari usunlarga nisbat beriladigan qabristonlarda ham katta oila dafnlari sifatida talqin qilinadi [5, b. 191; 11, b. 141]. Kungay alohida urug‘ qabristoni sanaladi: janubi-sharqiy qismdagi diametri eng katta (12 m) 22-qo‘rg‘on urug‘

boshlig‘iga tegishli deb taxmin qilingan; g‘arbiy zanjirda bir katta oilaning 26 a’zosi, shimoli-sharqiy qismda 21 kishi ko‘milgan [5, b. 185, 192]. 5-qo‘rg‘onda gulxan izlari, it kalla suyagi va tovuq tuxumi topilgan; bunga eng yaqin o‘xshashlik – Shirinsoy qabristonining 14-qo‘rg‘onidagi it jag‘i bo‘lib, V.F. Gaydukevich uni itning kult ahamiyati bilan bog‘lagan [3, b. 351; 5, b. 176, 192].

Oqtom, Kungay va shu tipdagi boshqa qabristonlar adirlar chetida, vohalarga bevosita yaqin joylashgan [5, b. 193]. Aynan shunday sopol Eylaton, Simtepa va Sho‘raboshot shahar xarobalaridan ham topilgan [5, b. 194; 8, b. 69; 9, b. 141]. N.G. Gorbunova fikricha, qabristonlarni qoldirgan aholi o‘troq dehqon bo‘lgan, ammo chorvachilik ham katta o‘rin tutgan: yozda molni o‘simlikka boy tog‘oldi hududlariga haydashga to‘g‘ri kelgan. Bu davr topilmalari asosan vodiyning sharqiy va qisman shimoliy qismida to‘plangan, Janubi-g‘arbiy Farg‘onada esa uchramagan [5, b. 194; 7]. Muallif bu madaniyatni bronza davrining Chust–Dalvarzin bosqichi bilan genetik bog‘laydi; dafn marosimi, ayrim sopol shakllari va buyumlarning Tyanshan, Yettisuv va Toshkent vohasi ko‘chmanchilari madaniyatiga o‘xshashligini esa dehqonlar va tog‘ qabilalarining uzoq davom etgan o‘zaro ta’siri bilan izohlaydi [5, b. 194].

B.I. Marshak ham Chust merosi miloddan avvalgi II asrgacha Eylaton (Eylaton–Oqtom) madaniyatida davom etganini, shu davrdagi ko‘chmanchilar madaniyati esa sak madaniyatining bir varianti bo‘lganini yozadi [13]. B. Abdullayev esa Eylaton madaniyatini o‘troq dehqonlar bilan emas, chorvador Qayroqqum madaniyati bilan genetik bog‘laydi [1]. Andijon viloyatidagi Xonobod-1 qabristonida 2020–2022 yillarda Eylaton madaniyatiga xos qo‘rg‘onlar va sopol ochilgan [12]; bu masalani yangi material asosida qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Demak, Kungay aholisining xo‘jalik-madaniy mansubligi hali bahsli.

Xulosa qilib aytganda, Kungay qabristoni 21 ta qo‘rg‘ondan iborat bo‘lib, 1956 hamda 1958–1959 yillarda deyarli to‘liq o‘rganilgan va unda taxminan 70 kishi dafn etilgan. Yodgorlikning o‘ziga xos jihati qadimgi yer sathida qurilgan tosh terma qabr inshootlaridan iboratligi hamda marhumlarning chalqancha holda, boshi g‘arbga qaratib dafn etilganidir. Qabrlardan topilgan sopol buyumlarning 55 foizi charxda yasalgan, 12 foizi esa naqshli bo‘lib, ularda Chust–Dalvarzin an’analari bilan muayyan vorislik

kuzatiladi. Qabriston miloddan avvalgi V–IV (III) asrlarga oid bo‘lib, Oqtom qabristoni bilan bir madaniy muhitga mansub hisoblanadi. Shu bilan birga, Kungay qabristoni aholisining o‘troq dehqon yoki chorvador muhitga mansubligi masalasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Shu sababli mazkur masalani yangi arxeologik materiallar asosida yanada chuqur o‘rganish va aniqlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Б.М. К проблеме эйлатанской культуры древней Ферганы // Вестник МИЦАИ. 2023. № 35. С. 19–35.
2. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1952. (Материалы и исследования по археологии СССР, № 26).
3. Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширин-сая в Узбекистане // Советская археология. 1952. Т. XVI.
4. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Ак-тамский могильник // Краткие сообщения Института истории материальной культуры. 1957. Вып. 69.
5. Горбунова Н.Г. Кунгайский могильник // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. Вып. 3. Л., 1961. С. 171–194.
6. Граков Б.Н. Техника изготовления металлических наконечников стрел у скифов и сарматов // Техника обработки камня и металла. М., 1930.
7. Давидович Е.А., Литвинский Б.А. Археологический очерк Исфаринского района. Сталинабад, 1955. (Труды Института истории, археологии и этнографии АН Таджикской ССР, т. XXXV).
8. Заднепровский Ю.А. Городище Шурабашат // Краткие сообщения Института истории материальной культуры. 1959. Вып. 76.
9. Латынин Б.А. Работы в районе проектируемой электростанции на р. Нарын // Известия Государственной академии истории материальной культуры. 1935. Вып. 110.
10. Массон В.М. Проблема древней Бактрии и новый археологический материал // Советская археология. 1958. № 2.

11. Тереножкин А.И. Археологические разведки по реке Чу в 1929 г. // Проблемы истории докапиталистических обществ. 1935. № 5–6.

12. Kambarov N.Sh. Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari // FarDU ilmiy xabarlari. 2022. № 5. DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss5/a9.

13. Marshak B.I. Farḡāna i. In the pre-Islamic period // Encyclopaedia Iranica. 1999 (онлайн нашр, янгиланган: 2013). URL: https://www.iranicaonline.org/articles/fargana-i-in-the-pre-islamic-period/